



HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILINI DAVRLASHTIRISHNING
NAZARIY ASOSLARI

Nafasova Vazira Turaevna,

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti,

[*nafasovavazira12@gmail.com*](mailto:nafasovavazira12@gmail.com)

[*https://orcid.org/0009-0003-2020-7316*](https://orcid.org/0009-0003-2020-7316)

Sunnatova Jasmin Humoyun qizi

Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili) yo‘nalishi talabasi,

[*sunnatovajasmin06@gmail.com*](mailto:sunnatovajasmin06@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbek adabiy tilini davrlashtirish masalasi, uning tarixiy ildizlari, eski turkiy til manbalari, chig‘atoy adabiy tili hamda milliy uyg‘onish davri bilan bog‘liq jarayonlar yoritiladi. Shuningdek, mustaqillik davrida adabiy til me‘yorlarining rivojlanishi va davlat tili maqomining mustahkamlanishi masalalari ko‘rib chiqiladi. Til taraqqiyotini ilmiy asosda davrlashtirishning ahamiyati va mezonlari haqida xulosalar beriladi. Shuning bilan birga olimlarning davirlashtirish haqidagi nazaryalari ham keltirib o‘tiladi.*

***Kalit so‘zlar.** O‘zbek adabiy tili, tarixiy ildiz, til, adabiy til me‘yorlari, davrlashtirish, turkiy til, uyg‘onish, milliy.*

***Annotation.** This article theoretically analyzes the formation and stages of development of the current Uzbek literary language. The issue of periodization of the Uzbek literary language, its historical roots, old Turkic language sources, the Chigatay literary language, and the processes associated with the period of national revival are covered. The development of literary language standards and the strengthening of the status of the state language during the period of independence*



are also considered. Conclusions are made about the importance and criteria of periodization of language development on a scientific basis. At the same time, the theories of scientists on periodization are also cited.

Keywords. *Uzbek literary language, historical roots, language, literary language norms, periodization, Turkic language, revival, national.*

Аннотация. *В данной статье теоретически анализируются формирование и этапы развития современного узбекского литературного языка. Рассматриваются вопросы периодизации узбекского литературного языка, его исторические корни, древнетюркские языковые источники, чигатайский литературный язык и процессы, связанные с периодом национального возрождения. Также рассматривается развитие литературно-языковых стандартов и укрепление статуса государственного языка в период независимости. Делаются выводы о важности и критериях периодизации развития языка на научной основе. При этом приводятся теории ученых о периодизации.*

Ключевые слова. *узбекский литературный язык, исторические корни, язык, литературно-языковые нормы, периодизация, тюркский язык, возрождение, национальный.*

O'zbek adabiy tili uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonini bosib o'tgan va turli ijtimoiy-siyosiy, madaniy omillar ta'sirida shakllangan. Uning ildizlari qadimgi turkiy tilga borib taqaladi. Xususan, eski turkiy yozma yodgorliklar, keyinchalik shakllangan chig'atoy adabiy tili va mumtoz adabiyot namunalari hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari tilning me'yorlashuvi, boyishi va badiiy imkoniyatlarining kengayishiga katta hissa qo'shgan. Shuningdek, jadidchilik harakati namoyandalari ham adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish, soddalashtirish va ommalashtirish yo'lida muhim ishlar olib borganlar. Hozirgi globallashtirish va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda milliy tilning mavqei va uning ilmiy asosda o'rganilishi



dolzarb masalalardan biridir. O‘zbek adabiy tilini davrlashtirish masalasi nafaqat tarixiy-lisoniy tadqiqotlar uchun, balki zamonaviy til siyosatini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. 1989-yilda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi va o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi til taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Mustaqillik yillarida lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi, imlo qoidalarining takomillashtirilishi adabiy tilning rivojlanishida muhim omil bo‘ldi. Tilni davrlashtirish orqali uning rivojlanish qonuniyatlari, ichki va tashqi omillar ta’siri, me’yoriy tizimning shakllanish bosqichlari aniqlanadi. Bu esa o‘zbek tilshunosligining nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbek adabiy tilini davrlashtirish masalasida tilshunos olimlar turli qarashlarni ilgari surganlar.

Umuman, o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotini quyidagi asosiy davrlarga ajratish mumkin:

X-XIV asr O‘zbek tilining eng taraqqiyoti davri

Bu bosqichda turkiy, eski turkiy til, turkiy xoqoniy, sharqiy turkiy, chig‘atoy tili rivojlangan. Asosiy adiblari va yozma yodgorliklariga Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf balasog‘uniy, Ahmat Yassaviy, Rabg‘uziy kabi adabiyot namayondalari yashab ijod qilgan.

XIV-XIX asr O‘zbek tilining takamillashish davri.

Bu bosqichda eski o‘zbek tili, turkiy til, chig‘atoy tili, O‘rta Osiyo turkchasi, Navoiy turkchasi, sharqiy turkcha tillari rivojlangan. Asosiy adabiyotlari va yozma yodgorliklariga Xorazmiyning “Muhabbatnomasi” (1353-y)dan boshlab Niyoz-Muhammad (Komil) Xorazmiygacha (XIX asr ikkinchi yarmi)

XIX-XX asr Milliy adabiy tilning shakillana boshlanishi.

Bu bosqichda yangi o‘zbek tili, turkiy til, sort tillari rivojlangan. Asosiy yozma adabiyotlari va yodgorliklari Muqumiy, Furqat asarlaridan boshlab o‘zbek jadid adabiyoti ilk namunalari gacha.

XX-XXI asr O‘zbek milliy adabiy tili.



Bu davrda Hozirgi o‘zbek tili rivojlangan. Asosiy yozma adabiyotlari Abdulla Qodiriy, Hamza, Ayniy, Oybekdan muosir adiblarga hammasi kiradi.

XX asrda o‘zbek adabiy tili me‘yorlashuv jarayonini boshdan kechirdi. Imlo, talaffuz, uslub va terminologiya tizimi izchil ravishda shakllantirildi. Mustaqillikdan so‘ng esa til siyosati milliy manfaatlar asosida qayta ko‘rib chiqildi va adabiy tilning ijtimoiy mavqei yanada mustahkamlandi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o‘zbek adabiy tilini davrlashtirish til taraqqiyotining tarixiy va nazariy asoslarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tilning shakllanish bosqichlarini izchil o‘rganish uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. O‘zbek adabiy tili qadimgi turkiy ildizlarga ega bo‘lib, asrlar davomida boyib, takomillashib kelgan. Bugungi kunda o‘zbek adabiy tilining me‘yorlarini saqlash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish va xalqaro miqyosda nufuzini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Tilni ilmiy asosda davrlashtirish esa ushbu jarayonda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet nashriyoti.
2. Madvaliyev A. (tahriri ostida). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent.
3. Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent.
4. To‘xliyev B. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni (1989).
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent-2009.
7. Nafasova V.T. Antropogidronimlar haqida ayrim mulohazalar. Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2024. – № 11/4. – B. 158-162.
8. T.Nafasov, V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati (maktab o‘quvchilari, kollej va litsey talabalari uchun). – Toshkent, 2007.
9. Nafasova V.T. Qashqadaryo viloyati etnogidronimlari tadqiqiga doir. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Buxoro, 2025. – № 12. – B. 190-194.



10. Nafasova V. T. THE PLACE OF PARONYMS IN THE LEXICAL SYSTEM OF THE UZBEK LANGUAGE //Актуальные вопросы филологии: теория и практика. – 2018. – С. 68-78.